



**ZAMONAVIY DUNYODA
IJTIMOIY FANLAR:
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

SHAXS VA JAMIYAT QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASIDA VORISIYLIKNING ROLI

Qonisbay Kdirbayev Muratbay o'g'li

“TIQXMMI” MTU katta o'qituvchisi

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18150866>

Annotatsiya: Maqolada shaxs va jamiyat qadriyatlari transformatsiyasida vorisiylikning roli o'rganildi. Tadqiqotda vorisiylikning qadriyatlarning avlod-dan-avlodga uzatilishidagi markaziy mexanizm sifatida shaxsning qadriyat tizimini shakllantirish, jamiyat normativlarini hayotiy faoliyatga tatbiq etish va jamiyat qadriyatlarini barqarorlashtirish hamda zamonaviy kontekstda yangilashga bo'lgan ta'siri tahlil qilindi va baholandi. Shu orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi madaniy, axloqiy va ijtimoiy uzviy bog'liqlikning mexanizmlari ifodalandi.

Kalit so'zlar: Vorisiylik, shaxs qadriyatlari, jamiyat qadriyatlari, qadriyatlar transformatsiyasi, madaniy reproduksiya, ijtimoiy uzviy bog'liqlik.

Vorisiylik – bu qadriyatlar, e'tiqodlar, urf-odatlar va madaniy me'yorlarning avlod-dan-avlodga uzatilishi jarayoni bo'lib, u shaxs va jamiyat hayotida barqarorlikni saqlash va madaniy uzluksizlikni ta'minlashda markaziy o'rin tutadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan qadriyat uzatilishi faqatgina tashqi ta'sir bilan chegaralanmaydi, balki u aksiologiya (qadriyatlar nazariyasi) va aksiologik etika asosida ham tahlil qilinadi. Aksiologik yondashuv qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi epistemologik va ontologik mexanizmlarni o'rganadi, ya'ni qadriyatlar nima uchun va qanday tarzda “qadriyat” deb baholanadi, ularning uzluksizligi qanday negizda hosil bo'ladi — bu masala vorisiylikni falsafiy ildizlarini tashkil qiladi

Shu nuqtai nazardan vorisiylik qadriyatlarni uzatish jarayonida subyektiv idrok, ijtimoiy normativlar va obyektiv madaniy meros o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganadi.

Shuningdek, qadriyatlarning uzatilish jarayoni jamiyatning umumiy madaniy transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u tarixiy rivojlanish, milliy identitet, ijtimoiy institutlar va ta'lim jarayonlari orqali amalga oshadi. Shaxs qadriyatlarni idrok qilib, ularni amaliyotga tatbiq etsa, jamiyat bu qadriyatlarni normativ tizim sifatida mustahkamlaydi va uzluksiz ravishda yangi avlodga uzatadi. Bu esa umumiy madaniy reproduksiya mexanizmini tashkil etadi.

Vorisiylikning shaxs qadriyatlariga ta'siri shaxs ichki dunyosi va ijtimoiy identitetining shakllanishida tub ildizga ega bo'lgan jarayon sifatida qaraladi. Vorisiylik — qadriyatlar, e'tiqodlar va urf-odatlar avlod-dan-avlodga uzatilishi bo'lib, u shaxsning qaysi qadriyatlarni o'ziga qabul qilishi hamda ularni hayotiy qarorlarida asosiy yo'nalish sifatida tanlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qayd etish lozimki, qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy konteksti shaxsning o'zini anglash va identifikatsiyasida markaziy o'rin tutadi. Masalan, madaniy meros va qadriyatlar individual identitet hosil bo'lishida qatnashadi va shaxsning o'z qadriyat tizimini yaratishiga asos bo'ladi.

Bundan tashqari, qadriyatlar shaxsning idrok etish mexanizmi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi asosiy yo'nalishlar sifatida xizmat qiladi, chunki ularning mazmuni shaxsning hayotiy maqsadlarini, qarorlarini va shaxsiy psixologik barqarorligini shakllantiradi [1].

Shuningdek, ijtimoiy muhit, xususan, oila instituti vorisiylik orqali shaxs qadriyatlarining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Oila, maktab va jamoaning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari shaxsga birinchi bo'lib etkaziladi va shu orqali shaxsning axloqiy, madaniy va ijtimoiy me'yorlarga munosabati barqarorlanadi[2,28]. Shu tarzda vorisiylik jarayoni shaxs qadriyatlarini nafaqat uzatadi, balki ularning ijtimoiylashuv, identitet va hayotiy qarorlar mexanizmlarini ham belgilaydi, bu esa shaxsning ichki va tashqi ijtimoiy hayotida uzluksiz ta'sir ko'rsatadi.

Vorisiylik va jamiyat qadriyatlarining uzviy bog'liqligi shaxs va jamiyat o'rtasidagi qadriyatlar tizimining dinamik uzluksizligini ifodalaydi, bunda qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitida shakllanib, avlodlar bo'ylab uzatiladi hamda jamiyatning umumiy normativ strukturasi barqarorlashtiradi. Tadqiqotlarda qadriyatlar uzatilishi shaxsning ijtimoiylashuvi va identifikatsiyasining asosiy mexanizmi sifatida ko'riladi. Bu jarayon orqali shaxs jamiyat qadriyatlarini qabul qilib, o'z xulq-atvori va qarorlarida aks ettiradi[3,148].

Jamiyat qadriyatlari va vorisiylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy integratsiyasi uchun muhim o'lchov hisoblanadi, chunki qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy strukturasi shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Masalan, jamiyatdagi qadriyatlarning o'zaro ta'siri va ularning shakllanish mexanizmi shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar jamiyat a'zolari tomonidan uzluksiz ravishda qabul qilinadi va jamiyat norma va me'yorlariga aylantiriladi, bu jarayon orqali madaniy va axloqiy ierarxiya ham shakllanadi.

Bu jarayon jamiyat qadriyatlarining o'ziga xosligini saqlab qolish bilan birga, ular ichida ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yangi qadriyat elementlarining paydo bo'lishiga ham imkon yaratadi.

Shuningdek, qadriyatlar tizimi shaxs va jamiyat o'rtasida faol o'zaro moslashuv mexanizmi sifatida ham ishlaydi. Chunki shaxs jamiyat qadriyatlarini ijtimoiy norma sifatida qabul qilib, o'z xatti-harakatlarida shu normativ tartibni qo'llaydi. Shuningdek, vorisiylik orqali jamiyat qadriyatlarining uzatilishi faqat shaxsning qadriyat qabul qilish darajasida emas, balki jamiyatdagi madaniy identitet, normativ tizim va ijtimoiy institutlar bilan uzluksiz integratsiyada ham bo'ladi, bu esa shaxs va jamiyat qadriyatlarining uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs va jamiyat qadriyatlari transformatsiyasida vorisiylik markaziy rol o'ynaydi, chunki u qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishini ta'minlaydi va shaxs hamda jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlaydi. Vorisiylik jarayoni orqali shaxs o'zining ichki qadriyat tizimini shakllantiradi, jamiyatning ijtimoiy-madaniy me'yorlarini qabul qiladi va ularni hayotiy qarorlarida tatbiq etadi. Shu bilan birga, vorisiylik jamiyat qadriyatlarini barqarorlashtirish va yangilash mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Xususan, yangi avlod qadriyatlarni ichki idrok qilishi, shaxsiy tajriba va zamonaviy kontekstga moslashtirishi natijasida ijtimoiy transformatsiya jarayoni yuzaga keladi. Natijada, vorisiylik nafaqat qadriyatlar tizimini uzluksiz ravishda uzatadi, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi madaniy, axloqiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirni ham rivojlantiradi, bu esa aksiosfera transformatsiyasining muhim tarkibiy elementi sifatida qadriyatlarning izchil va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Z. N.Raxmonova. "Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari".

Markaziy Osiyoda Jamiyat, Gender va Oila ilmiy jurnali, 2025.

2. S.A.Sobirova. “Oila shaxs qadriyatlarini shakllantiruvchi institut sifatida”. Zamonaviy pedagogika va ijtimoiy fanlar jurnali, 2025, 28-bet.

3. R.Inglehart, Ch.Welzel. “Modernization, Cultural Change, and Democracy: The Human Development Sequence”. Cambridge University Press, 2011, pp. 148–150.



№ ZDIF2601-00015

DIPLOMA

OF ACHIEVEMENT

THIS DIPLOMA IS AWARDED TO

Qonisbay Kdirbayev Muratbay o'g'li

FOR THE AUTHORSHIP OF THE FOLLOWING SCIENTIFIC ARTICLE
PUBLISHED IN THE REPUBLIC SCIENTIFIC JOURNAL «ZAMONAVIY
DUNYODA IJTIMOIIY FANLAR: NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR»:

**SHAXS VA JAMIYAT QADRIYATLARI
TRANSFORMATSIYASIDA VORISIYLIKNING ROLI**

Vol.5 No.01 (2025): ZDIF

05.01.2026

DATE



CHIEF EDITOR



CERTIFICATE OF PUBLICATION

«ZAMONAVIY DUNYODA IJTIMOIIY FANLAR:
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI
ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASIDA

Qonisbay Kdirbayev Muratbay o'g'li

**SHAXS VA JAMIYAT QADRIYATLARI
TRANSFORMATSIYASIDA VORISIYLIKNING ROLI**

**NOMLI MAQOLASI BILAN ISHTIROK ETGANLIGI
UCHUN TAQDIRLANADI.**

05.01.2026

DATE



CHIEF EDITOR

